# BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI INTEGRAL RIVOJLANTIRISH TASNIFI

**Xamzayev X.X. Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti**

**Annotatsiya.** Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning asoslari, kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining mazmun-mohiyati va uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik tushunchalarning tasnifi keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** integral yondashuv, kompetensiya, kompetentlik, malaka, kasbiy kompetensiya, modul, faoliyat, kompetenli faoliyat, tizim, strategiya.

**Аннотация.** В статье представлены основы развития профессиональных компетенций у будущих учителей, сущность и содержание понятий компетенции и компетентности, а также классификация дидактических понятий, служащих их развитию.

**Ключевые слова:** интегральный подход, компетенция, компетентность, квалификация, профессиональная компетенция, модуль, деятельность, компетентная деятельность, система, стратегия.

**Abstract.** The article presents the basics of developing professional competencies in future teachers, the essence and content of the concepts of competence and competence, and a classification of didactic concepts that serve its development.

**Keywords:** integrated approach, competence, competence, qualification, professional competence, module, activity, competent activity, system, strategy.

Ta’lim faoliyatini tartibga soluvchi ilmiy tadqiqotlar va meyoriy-huquqiy hujjatlarda kasbiy kompetensiya va uning tarkibiy qismlarini shakllantirish eng muhim maqsad sifatida belgilanadi. Kompetensiya, mohiyatan, shaxsning integral shakllanishi bo‘lib, turli sohalardagi bilim va ko‘nikmalarni turli xil kasbiy vaziyatlarda samarali qo‘llash qobiliyati va tayyorligini, natijani bashorat qilish qobiliyatini tavsiflaydi.

Ko‘p sonli pedagogik turkum fanlar har bir kompetensiyani shakllantirishga hissa qo‘shishini hisobga olmaydi. Agar integral yondashuv bir necha darajalarda, shu jumladan, taniqli, ammo amalda har doim ham osonlikcha amalga oshirilmaydigan fanlararo aloqalar

orqali to‘liqroq amalga oshirilsa, bu qarama-qarshiliklarni bartaraf etish mumkin [1; 2]. Umumiy va individual kompetensiyalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishning eng muhim usuli sifatida integrativ yondashuv ilgari biz tomonimizdan ko‘rib chiqilgan. Biroq u amaliy, uslubiy darajada, integrativ, fanlararo o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish, ularni shakllantirish va o‘quv jarayoniga joriy etish usullari sharoitida yaxshi rivojlanmagan.

Pedagogik turkum fanlar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish kasbiy yo‘nalishni hisobga olgan holda eng samarali hisoblanadi va bu holda kelajakdagi kasbiy faoliyat va uning talablari integratsiya jarayoni uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunday o‘qitish nafaqat fanlararo, balki integratsiyaning keyingi, yuqori darajasi bo‘lgan ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsion aloqalarni ham amalga oshirishga imkon beradi.

Integrativ yondashuv, shuningdek, o‘quv dasturlari va baholashlar kelajakdagi ish beruvchining ehtiyojlarini hisobga olishiga yordam beradi, bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarni erta moslashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Chunki, pedagogik ta’lim yo‘nalishdagi o‘quv dasturining mazmuni va unga kiritilgan individual o‘quv-uslubiy majmualar, shu jumladan, birinchi navbatda, fanlarning ish dasturlari va baholash fondlari orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda, amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar sharoitida, pedagogik oliy ta’lim muassasalari oldida bir qator kompetensiyalarga ega bo‘lgan kasbiy malakali o‘qituvchini tayyorlashning asosiy vazifasi turibdi. Ushbu kompetensiyalar to‘plami kasbiy faoliyat sohasidagi integral bilim va qobiliyatlarga ega bo‘lishdan iborat bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchiga qisqa vaqt ichida jamoada moslashishga, o‘quv jarayonining barcha sub’ektlari bilan samarali aloqada bo‘lishga, kasbiy faoliyatning paydo bo‘lgan vazifalarini malakali hal qilishga imkon beradi.

Doimiy ravishda pedagogik oliy ta’limni modernizatsiya qilish dinamikasi bilan belgilanadigan raqamli texnologiyalar vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini integrativ rivojlantirishga ta’limi mazmunini yangilash maqsadlariga erishish uchun samarali strategiyalarni izlaydilar, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini integrativ rivojlantirishga tayyorlash tizimidagi yo‘nalishlarni va ularning kasbiy xususiyatlarini ko‘rib chiqish zarurligini anglaydilar.

Ushbu tushunchaning natijasi «o‘qituvchining kasbiy standarti»ga bo‘lajak o‘qituvchining fundamental integral xususiyatlari sifatida kiritishdir, shu munosabat bilan, unchalik yangi bo‘lmagan, ammo shunga qaramay, hali ham dolzarb masalalarga qaytish zarurati mavjud [2].

Ushbu ishning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish muammosini nazariy va amaliy o‘rganishni tahlil qilish, shuningdek, ushbu kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida metodologik yondashish va uslubiy vosita sifatida integral yondashuvdan foydalanish imkoniyatlarini ochib berishdir.

Zamonaviy pedagogik turkum fanlarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish muammosini o‘rganuvchi tadqiqotchilarning umumiy uslubiy jarayon aniq belgilangan. Xususan, professor N.Muslimov kasbiy kompetensiyaning integrativ xususiyatini mutaxassisning bilim, hayotiy va kasbiy tajribadan foydalangan holda real yoki kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan kasbiy muammolarni hal qilish qobiliyatini belgilaydigan kasbiy xususiyatlar to‘plami sifatida ta’kidladilar.

Shuningdek, professor M.E.Axmedova «malaka» va «kasbiy kompetensiya» tushunchalarini farqlash muhimligini ta’kidlaydilar. Kasbiy kompetensiya malakadan farq qiladi, chunki u kasbiy bilimlardan tashqari, ko‘nikmalar, tavsifidagi xususiyatlar, tashabbuskorlik, muloqot qobiliyatlari, hamkorlik qilishga tayyorlik, odatdagi kasbiy muammolarni hal qilish tajribasi va boshqalar kabi shaxsiy fazilatlarni o‘z ichiga oladi [4].

MDH va xorijiy tadqiqotchilardan N.N.Novikov metodik tizimlarni amaliyotga tatbiq etgan bo‘lsa, T.V.Sharigalova tomonidan talabalarning aqliy tafakkurini rivojlantirish mexanizmi joriy etilgan. I.I.Kuznesova, A.G.Kraveslar ta’lim traektoriyalariga oid mustaqil rivojlantirish imkoniyatini yaratilishini ilmiy asoslab berishgan. N.V.Kuzmina, A.K.Markova, V.A.Slastenin, O.P.Morozova, shuningdek, xorijiy olimlar Ch. Efing, Holger Hopp, G.Pätzold, Schmidt-Callsen va boshqalar asarlarida, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish muammosi o‘rganilgan. Shu bilan birga, mualliflar ushbu kompetensiyaning quyidagi asosiy tarkibiy qismlarini aniqlaydilar: kasbiy faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarlikning mustahkamligi, kundalik faoliyatning kasbiy vazifalari va majburiyatlarini hal qilish qobiliyati, informatsion qobiliyatlari, bilimlarning

birligi, yuqori axloqiy meyorlar va o‘qituvchining kasbiy kodeksi.

Ushbu kontekstda tizimli kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini ko‘rib chiqish «kompetensiya», «kompetentlik» tushunchalarini farqlashni nazarda tutadi. Ushbu tushunchalarni muhim, chuqur xususiyatlarini o‘rganish natijasida kerakli ma’lumotlar, ularning tahlili keyingi tadqiqotlar mantig‘ini aniqlashga imkon beradi [5].

Pedagogik turkum fanlar modul tizimida umumiy kompetensiyalar va kasbiy kompetensiyalar axborot ta’lim mazmunini rivojlantirishga xizmat qiladigan kategoriyalar hisoblanadi.

Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, kompetensiyalar dinamik xususiyatga ega, chunki ular insonning shaxsiy tarkibidagi o‘zgarmas sifat emas, balki ularni rivojlantirish uchun sabab bo‘lmasa, rivojlanish, takomillashtirish yoki butunlay yo‘q bo‘lib ketishga qodir.

N.S.Saxarova “kompetensiya” atamasining juda chuqur va original talqinini taqdim etadi. U falsafa, mantiq, tabiatshunoslikda “kompetensiya” tushunchasining ta’riflarini sinchkovlik bilan tahlil qildi va tirik organizmning tashqi ta’sirga javoban tegishli reaksiya bilan javob beradigan qo‘shma faoliyatni amalga oshirish qobiliyatidan iborat umumiy kategorik mohiyatini ochib berdi [6].

Umumlashgan shaklda kompetensiyani sifat deb belgilasak, kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo‘ladigan bu mulkka egalik, deb qarash mumkin. Muayyan universitetni yoki institutni tamomlagan bitiruvchi (mutaxassis) muayyan kompetensiyalar – kasbiy-relevant sifatlar asosida kasbiy faoliyatni amalga oshirishda faollashtiriladigan va uning kompetentliligini ko‘rsatadigan salohiyatga ega bo‘ladi. Shuni ta’kidlash kerakki, “kompetensiya” atamasi mutaxassisni kasbiy faoliyatida o‘zini tavsiflash uchun ishlatilishi va “kompetensiya” – mutaxassisni “potensial” kompetentli qiladigan asosiy xususiyat sifatida ifodalashi mantiqiydir. Shuning uchun ba’zi tadqiqotlarda bo‘lgani kabi kompetensiyani o‘zlashtirish haqida gapirish mutlaqo to‘g‘ri emas. Chunki, muayyan bir kasbga tegishli kompetensiyalarni egallasagina, ularni ma’lum bir kasbiy faoliyat tajribasida qo‘llash orqali vakolatli bo‘lishi mumkin, xolos.

«Kompetentlik» tushunchasi ta’lim-tarbiya sohasiga pedagog va psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida fanga kirib kelgan bo‘lib, pedagogik va psixologik nuqtai nazardan

kompetentlik «noan’anaviy vaziyatlar, o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, oldindan ko‘ra bilish noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi.

M.A.Choshanovning ta’kidlashicha, “kompetentlik – bu nafaqat muammo mohiyatini tushunish, balki uni hal etish metodlarini egallash” dan iboratdir. Mazkur olimning kasbiy kompetensiya mavjud bilimlar asosida vujudga kelgan muammoni hal etish usulini tez va to‘g‘ri tanlash ko‘nikmasida namoyon bo‘lishini nazarda tutib, yuqoridagi ta’kidlagan qisqa ta’rifni berganligini to‘g‘ri, deb hisoblaymiz.

V.A.Serunyanning dissertatsiyasida ham kompetentlik mezonlari haqida muayyan fikr-mulohazalar mavjudligini ko‘ramiz: kompetentlik mezonlari faoliyatning obyektiv natijalari va tavsifini, shuningdek, subyektiv omillar, motivlar va qiziqishlarni ifodalash lozim, ya’ni subyekt kompetentligi, bir tomondan, faoliyat maqsadi shaxsning motivlarining umumiy tuzilmasi qanchalik kirish bilan, boshqa tomondan, u yoki bu natija uchun faoliyat qanday amalga oshirilishi bilan baholanadi [7].

O.M.Bobiyenkoning dissertatsiyasida esa kompetensiyalarni baholash usullari sifatida quyidagilar taklif etilgan: kuzatish, savolnomalar, natijalar papkasi (portfolio), yozma jurnal (kundalik), rag‘batlantirish (ishbilarmonlikka o‘rgatish) amaliy topshiriqlar (kasbiy malakalarni namoyish etish) va videotasvirlar.

Rossiya davlati oliy ta’limida uzoq yillar amaliyotda xizmat qilayotgan nufuzli “Pedagogika” darsligining mualliflari “kompetentli faoliyatni amalga oshirishga zaruriy va amaliy tayyorgarlikning birligi sifatida qaraganligi ham ayni haqiqat. Psixolog olimlardan, xususan, Ye. Vaxramov kompetentlikni “kundalik hayotdagi real vaziyatlarda vujudga keladigan tipik muammolar va masalalarni samarali hal etishga imkon beruvchi o‘ziga xos qonuniyat” sifatida ta’riflaydi va izohlaydi.

Xullas, kompetentlik – deganda insonning kompetensiya va faoliyat predmetiga shaxsiy munosabatlaridan iborat mos kompetensiyaga egaligi ham tushuniladi. Bizning nazarimizda, tadqiqotimizga daxldor kompetensiya tushunchasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi va keng ma’noda ifodalanishga xizmat qiladi: a) pedagogika oliy o‘quv yurtlarining

ingliz tili va adabiyoti yo‘nalishi bitiruvchisining tayyorgarligi, “mutaxassislashtirilgan”ligi, faoliyat usullari va vositalariga haqiqiy egaligi, pedagogik va lingvistik kompetensiya bilan bog‘liq muammolari o‘z vaqtida bajara olishligi bilan ifodalanuvchi ta’lim natijasi; b) atrof-muhitini shakllantirish muayyan maqsadni qo‘yish va unga erishish imkonini beruvchi bilim, malaka va ko‘nikmalarning mosligi.

“Kompetentlik” atamasidagi *“-lik”* qo‘shimchasi aslida ta’lim sifatiga egalik darajasini bildirganligini olimlar yaxshi bilishadi. Shuning uchun ham mazkur atama milliy tilimizda va pedagogik amaliyotda ta’lim sifatlari va ularga egalik darajasini belgilash uchun qo‘llaniladi. *Kompetentlik* – deganda shaxsning muayyan faoliyat yuritishga umumiy qobiliyatlar va uning kasbiy tayyorgarligida namoyon bo‘luvchi ta’lim jarayonida o‘zlashtirilgan bilim va tajribalarga asoslangan integrallashgan sifatlari tushuniladi.

Demakki, “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari bilim, malaka va ko‘nikma tushunchalaridan biroz kengroq, chunki ular shaxsning muayyan sohaga yo‘naltirilganligi, qo‘yilgan muammo va vazifalarni his qila olishi, sinchkovlikni namoyon qila olishi, egiluvchan fikrlashga ega bo‘lishi kabi pedagogik sifatlarni o‘z ichiga oladi. Milliy tilimizda har ikkala atama sinonim tushunchalar sifatida qo‘llaniladi. Bu tushunchalar milliy pedagogikamizda nisbatan yangi hisoblanganligi uchun ham tegishli adabiyotlarda ularning turli xil talqinlari mavjudligini ko‘ramiz. Lekin ularning ixchamlashgan, mazmunli va meyorlashgan ifodasi oliy ta’limning Davlat ta’lim standartidagi ta’riflarda berilgan [8].

Kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining mazmunini bugungi kunda barcha mutaxassisliklar uchu zarur bo‘lgan ksbiy information kompetensiya va kompetentlik misolida aniqlashtirib ketsak. Demak:

Informatsion kompetensiya:

- kompyuter texnologiyasini bilish;

- har xil dasturlar yarata olish va tahlil etish (insert, interfaol metodlar asosida);

- texnologik sifatlarni o‘zlashtirishda innovatsiya tajriba-sinov ishlarida texnologiyalarni qo‘llash (innovatsiya);

- loyihalashtirishni rivojlantirishning metodikasi (inovator, novator);

- axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish,

saralash, loyihalash, bashoratlash qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish.

Informatsion kompetentlik – ta’limiy munosabatlarda oldindan faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, axborot ta’limini rivojlanganligi, axborot ta’limiga kirisha olish va axborot ta’limi borasida savodxonlik.

Shu o‘rinda oily ta’lim pedagogik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarga to‘xtalib o‘tsak. Bular:

- aniq ta’limiy maqsad, prognoz asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish;

-pedagogik turkum fanlar ta’lim jarayon samaradorligini, o‘zining ishchanlik faolligini oshirish;

- izchil ravishda yangilanib borayotgan ta’limda bilimlarni o‘zlashtirish;

- ilg‘or pedagogik texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo‘lis;

-oliy ta’lim faoliyatiga fan-texnikaning so‘nggi yangiliklarini samarali tadbiq etish;

-kasbiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish.

Bu kabi kasbiy kompetensiyalarni egallashda bo‘lajak o‘qituvchilardan maxsus pedagogik kompetentlikni talab etadi. Maxsus pedagogik kompetentlik bu – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini baholashdir. Bilim, ko‘nikma va malakani izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida pedagogik-psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

**Pedagogik kompetentlik** – pedagogik va didaktik kategoriyalar bilim, malaka, ko‘nikma hamda kompetensiyalardan ta’limiy faoliyat jarayonida foydalana olishga yo‘naltirilgan shaxsiy xususiyatlar majmuidir. Pedagogik kompetentlik kasbiy kompetentlikning ajralmas bir qismi hisoblanadi, shu sababli uni ta’limiy -maqsadli kompetentlik deb ta’riflash ham mumkin.

**Kreativ pedagogik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta

olish, pedagogik faoliyatga nisbatan jidiy va ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish. Buning asosiy foydalanuvchilari OTM boshqaruv xodimlari va o‘qituvchilaridir.

**Metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyatni to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash.

**Forsayt kompetentlik –** vaziyatni oldindan ko‘rish, bilish, rejalashtirish, intuitsiyani oldindan his qilish va samarali bashoratlash orqali kasbiy faoliyat jarayonida yuqori natijalarga erishish;

**Innovatsion kompetentlik** – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

**Kommunikativ kompetentlik** – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, raqamli texnologiyalar vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini integrativ rivojlantirishga bilan samimiy munosabatda bo‘lish, ularni bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish;

**Shaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish;

**Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik bilim, ko‘nikma va malakalarni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish;

**Ekstremal kompetentlik** – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

Demak, biz qo‘llash sohasi bo‘yicha talabalarning fikriga tayanib ularga xos bo‘lgan kompetentlikni quyidagi tarkibiy asoslarini ishlab chiqdik. Bunda talabani kursi, yoshi inobatga olinadi hamda axborot texnologiyasidagi o‘zgarishlarga e’tibor berish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Старшинова Т.А. Интеграция: компетентностный формат / Т.А.Старшинова,

В.Г. Иванов // Высшее образование в России. – 2011. – №10. – С. 133-134.

2. Старшинова Т.А. Интегративный подход как основа компетентности / Т.АСтаршинова, В.Г. Иванов // Высшее образование в России. – 2009. – №8. – С. 154-156.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 1 apreldagi PF-6198-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-5352267?ONDATE=02.04.2021%2000.

4. Ахмедова M.E. Modul-kredit tizimi uchun tilshunoslik fanlaridan mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari: ped. fan. d-ri (DSc) ... diss. Avtoreferati – N.: 2022. –70 b.

5. Новикова Н.Н. Документ-камеры – средство визуализации учебного материала на уроках технологии / Н.Н.Новикова // Школа и производство. – 2014. – № 1.– С. 1720.

6. Сахарова Н.С. Категории «компетентность» и «компетенция» в современной образовательной парадигме // Вестник ОГУ. 1999. № 3. С. 51-58.

7. Церунян В.А. Педагогическое условия формирования личности специалиста: дис... канд. пед. наук.: - М.- 2002. – 141 с.

8. Jumanazarov U.U. Ta’limni raqamlashtirish muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish: Ped. fan. dok... Dis. – J.: 2021. – 302 b.